



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA
MA'LUMOT

2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi




So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va buniyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 27 328 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 24 067 ta).

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylumotlar

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


(2024- yil yanvar-sentabr oylarida)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 5 791 tani tashkil etdi.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Yangiariq (196 taga), Hazorasp (85 taga) va Urganch tumanlarida (67 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 639 taga, sanoatda – 443 taga va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 70 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 27 328 tani tashkil etdi, ulardan 24 198 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,6 foiz, sanoat – 15,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,0 foiz, qurilish – 5,8 foiz. Tumanlar kesimida esa eng ko'pi Yangiariq – 8,1 foiz, Qo'shko'pir – 2,8 foiz, Hazorasp – 2,2 foiz va Xonqa tumanlarida – 2,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Urganch sh.	5 181	Urganch	2 960
Qo'shko'pir	2 200	Xonqa	2 108
Xiva sh.	1 984	Bog'ot	1 905
Xiva	1 856	Shovot	1 854
Yangiariq	1 819	Gurlan	1 759
Hazorasp	1 702	Yangibozor	1 256
Tuproqqal'a	744		

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2024- yil yanvar-sentabr oylarida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 716 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 5 691 ta;
- yirik korxonalar 25 tani tashkil etdi.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**

5 716

2024

2023

5 119

4 506

2022

2021

3 421

3 710

2020

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Urganch sh.

700

Yangiariq

573

Urganch

554

Shovot

537

Bog‘ot

475

Hazorasp

462

Gurlan

452

Qo‘shko‘pir

442

Xiva

395

Xonqa

352

Xiva sh.


318

Yangibozor

304

Tuproqqal‘a

152




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 24 198 tani tashkil etdi, ulardan 24 067 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,9 foiz, sanoat – 17,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 7,0 foiz, qurilish – 6,5 foiz, tashish va saqlash – 4,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,2 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, boshqa turlari – 11,1 foiz.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2024- yil yanvar-sentabr oylarida)

Viloyat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 555 tadan 1 194 taga (o‘sish 639 taga), sanoatda – 895 tadan 1 338 taga (o‘sish 443 taga) ko‘paydi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (18,4 foiz), Urganch (11,1 foiz), Qo'shko'pir (8,2 foiz) va Xonqa (7,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 70,8 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2024-yil 1-oktabr holatiga)**

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar—qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Tumanlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Gurlan (15,5 foiz), Xonqa (10,6 foiz) va Qo'shko'pir (10,5 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Gurlan	469
Xonqa	320
Qo'shko'pir	317
Urganch	312
Yangiariq	268
Xiva	259
Bog'ot	253
Shovot	213
Yangibozor	211
Tuproqqal'a	134
Hazorasp	99
Urganch sh.	87
Xiva sh.	77

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**




Sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jami korxona va tashkilotlarning 15,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,7 foizini ishlab chiqarish sanoati, 1,4 foizini suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, 0,5 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash, 0,4 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Ishlab chiqarish sanoati

4 041



Suv bilan ta’minalash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

59



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash

20



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

17




(2024-yil 1-oktabr holatiga)



Viloyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 56,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishidagi korxonalar soni esa 22,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishidagi korxonalar soni 21,8 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Bino va
inshootlar qurish

889



350

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

346

Fuqarolik
obyektlarini qurish



(2024-yil 1- oktabr holatiga)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 151 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.


Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 62,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 24,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 13,3 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Urganch sh.	1 678
Xiva	569
Urganch	1 073
Xiva sh.	690
Qo‘shko‘pir	690
Xonqa	595
Yangiariq	678
Shovot	636
Hazorasp	623
Gurlan	486
Yangibozor	430
Bog‘ot	817
Tuproqql‘a	204

Yillar kesimida soni
(birlikda)



5726

Avtomobil va mototsikllar
savdosidan tashqari chakana savdo

2219

Avtomobil va mototsikllar
savdosidan tashqari ulgurji savdo

1224

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 1 701 taga yetib, ularning 1 686 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkaziah bo'yicha xizmatlat yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 86,5 foiz ulushini tashkil etdi.

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 13,5 foiz ulushini tashkil etdi;

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**

Urganch sh.	393
Xiva sh.	278
Urganch	173
Shovot	112
Xonqa	108
Yangiariq	98
Gurlan	89
Qo'shko'pir	89
Bog'ot	86
Xiva	80
Yangibozor	75
Hazorasp	73
Tuproqqal'a	47

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



1 471
Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

2024- yil 1- oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo‘limida korxona va tashkilotlar soni axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 61,1 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo‘limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 33,1 foizini;

Ko‘rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 5,8 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar
	Noshirlik faoliyati

143	108	Aloqa
------------	------------	-------

	Noshirlik faoliyati
--	---------------------

78	58	Axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi faoliyat
-----------	-----------	--

	Kino-videofilmlar, television dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish
--	--

19	5	Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirish
-----------	----------	---


(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 544 ta yoki 88,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.



Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 94,8 foizi sog‘liqni saqlash yo‘nalishidagi to‘g‘ri keladi;
- yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 2,9 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,3 foizini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2024- yil 1- oktabr holatiga)



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Urganch sh.	214
Hazorasp	185
Xonqa	115
Urganch	104
Bog‘ot	63
Qo‘siko‘pir	63
Shovot	60
Xiva sh.	58
Gurlan	47
Xiva	46
Yangiariq	33
Yangibozor	20
Tuproqqal‘a	15

2024- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 3,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo‘naliashlari bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatadi:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 77,2 foizni tashkil etdi;
- ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalisining korxonalar soni 20,8 foizni;
- pochta va kuryerlik yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,4 foizni;
- havo va suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar soni 0,6 foizni tashkil etgan.



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo'yicha umumiy ma'lumot**
(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

14 853

**mas'uliyati cheklangan
jamiyat**

61,4

4 494

xususiy korxonalar

18,6

4 655

oilaviy korxonalar

19,2

30

aksiyadorlik jamiyat

0,1

166

boshqalar


0,7

(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zлari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

Amaldagi 24 198 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024- yil 1- oktabr holatiga ma’suliyati cheklangan jamiyatlar 14 853 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha korxonalar orasida birinchi o‘rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko‘p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 36,8 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 15,0 foiz, sanoat – 14,4 foiz, qurilish – 8,3 foiz.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-sentabr oylarida)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024- yil 1- oktabr holatiga)

2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Urganch shahrida – 1 089 ta, Xonqa – 550 ta va Shovot tumanida – 509 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan: savdo sohasida – 1 858 ta, sanoatda – 813 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 321 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 307 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Gurlan tumani




(2024- yil yanvar-sentabr oylarida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Yillar kesimida soni

(birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Gurlan tumani




(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 4 655 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 39,1 foiz, sanoat – 24,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 17,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,0 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Urganch tumani – 13,5 foiz, Urganch – 12,7 foiz va Xiva shahrida – 11,2 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Gurlan tumani



(2024-yil yanvar-sentabr oylarida)

21

**Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va bu
sohalarda xizmat ko‘rsatish**

Mavsumiy va ko‘p yillik ekinlar yetishtirish, chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bu bo‘limning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, fermer xo‘jaliklarining ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklari umumiy sonining 84,0 foizini tashkil etadi.

4


**Baliq ovlash
va akvakultura**

Baliq ovlash va akvakultura vakillari baliqchilik bo‘limi faoliyatining asosiy yo‘nalishi bo‘lib, fermer xo‘jaliklari sonidagi ulushi yangi tashkil etilgan fermer xo‘jaliklari umumiy sonining 16,0 foizini tashkil etadi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Hazorasp	9
Qo‘shko‘pir	5
Bog‘ot	5
Shovot	3
Urganch	1
Tuproqqal‘a	1
Yangibozor	1

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**




Faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari to'g'risida ma'lumotlar

(2024- yil 1- oktabr holatiga)


Viloyatda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevasabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'naliishlardan biriga aylandi.

Tumanlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Shovot (12,9 foiz), Xonqa (11,5 foiz) va Yangibozor (10,6 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



3 821 Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va bu
sohalarda xizmat ko'rsatish



560 Baliq ovlash va
akovakultura




**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(2024- yil yanvar- sentabr oylarida)**

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rshimiz mumkin.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 155,6 foizni tashkil etdi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2024-yil 1-oktabr holatiga)


O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'naliishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 135 ta korxonalaridan 60 tasi qo'shma korxonalar va 75 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 7,1 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 135 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligini 24,4 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 20,0 foiz), Turkmaniston (ulushi 19,3 foiz) va Xitoy (ulushi 10,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

(2024- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)



Viloyatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta’minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Urganch shahrida 37,8 foiz, tumanlar orasida esa Urganch – 8,1 foiz, Shovot – 7,4 foiz va Xiva – 6,7 foiz to‘g‘ri keladi.

(2024- yil 1- oktabr holatiga ,birlikda)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024-yil 1- oktabr holatiga, birlikda)



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2024- yil 1- oktabr** holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTİ HUZURIDAGI
STATİSTİKA AGENTLİĞİ

Mobil versiyasi

Korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

STIR kodini kiriting

Aga tushunariz bo'lsa, ro'zani: hozirgi
Z k'aybi

Rasmiydi kodini kiriting

Ochish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'milasi
2023 yil



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'r alayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (62)22-4-65-11